



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2024 yil 17 aprel

№ 1895

Ayrim sudyalarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 79-moddasi va “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq

Q A R O R Q I L A D I:

1. Buriyev Aziz Abdukaimovich – yozma arizasiga asosan Toshkent shahri fuqarolik ishlari bo‘yicha Yakkasaroy tumanlararo sudining sudyasi lavozimidan ozod etilib, sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilsin;

2. Dusmanov Sandjar Abdujalolovich – yozma arizasiga asosan Toshkent viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Qibray tuman sudining raisi lavozimidan ozod etilib, sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilsin;

3. Tangabayev Rustam Abduganiyevich – yozma arizasiga asosan hamda Sudyalar odobi kodeksi talablarini buzganligi uchun Toshkent shahri fuqarolik ishlari bo‘yicha Mirzo Ulug‘bek tumanlararo sudining raisi lavozimidan ozod etilib, sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilsin;

4. Zakirova Malikaxon Ikromovna – yozma arizasiga asosan hamda Sudyalar odobi kodeksi talablarini buzganligi uchun Toshkent shahar sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimidan ozod etilib, sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov